

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TIL O'RGANISH KO'NIKMALARINI DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ashurova Dilrabo Isroil qizi

TerDUPI "Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada didaktik o'yinlar, uning ta'rifi, ularning boshlang'ich sinif o'quvchilari uchun til o'rganishdagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Tayanch so'zlar: *Didaktik o'yin, ijodiy faoliyat turi, ta'lim vositasi, motivatsiya, ko'nikma va ijtimoiylashish.*

Hozirgi davrda butun dunyoni egallab olayotgan globallashtirish jarayoni yosh avlodning bir nechta xorijiy tilni puxta o'zlashtirishini talab etmoqda. Shu sabab, bu borada davlatimizda ham ahamiyatga molik ishlar, sa'y-harakatlar keng miqyosda olib borilmoqda. Qator davlat dasturlarida, jumladan, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish lozimligi ta'kidlab qo'yildi⁹⁷.

Shu boisdan ham, aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoit yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Undan tashqari xorijiy tillarni o'qitishga doir qaror-farmonlar, 1-sinfdanoq chet tillarni o'qitish kerakligi 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1875-sonli qarori" bilan ham tasdiqlab qo'yildi. Bundan tashqari, 2020-yil 6-noyabr "PF-6108 O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmonda ham, yurtimiz kelajagi bo'lgan avlodni eng kichik davridanoq ilm o'rganishga, tillarni o'zlashtirishga alohida e'tibor berish kerakligi ta'kidlab o'tildi. 2021-yil 6-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektorda davlatimiz rahbari shunday fikrlarni keltirib o'tdilar: "Chet tillarini o'qitishga urg'uni boshqacha qo'yish kerak. Katta korxonalar va texnologiyalar o'rnatilmoqda. Xorijiy tilni mukammal bilish zarurati yuzaga kelyapti. Barcha hududlar rahbarlari, ta'limga aloqador tashkilotlar o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborimizni chetda qoldirmay, chet tillarini o'rgatish bo'yicha jiddiy shug'ullanishi kerak. Maktab, litsey, kollej va oliygo'ha bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart".⁹⁸

Ya'ni tilni o'rgatuvchi interaktiv materiallar, internet platformasi va mobil ilovalari

⁹⁷2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117 son qarori.

⁹⁸2021-yil 6-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektordagi nutqidan.

yaratilib, maktab va bog'chalarda ommabop videodarslardan keng foydalanish yo'lga qo'yiladi. Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufayli bola o'yin orqali atrof-olamni kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan holda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi.

O'yin bolaning nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida esa chet tillarni o'zlashtirish uchun samarali metodlar, interfaol usullar ishlab chiqilmoqda, shular jumlasidan, zamonaviy pedagogika uchun, o'quvchi-yoshlarning chet tillarini egallashida didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Didaktik o'yinlar-bolalarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yin turlaridir. Ular bolalarni o'qitishning o'ziga xos muammolarini hal qilishga qaratilgan, ammo shu bilan birga, ular tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchilarining bilim faolligini oshirishning samarali usullaridan biri bu didaktik o'yin. O'yin davomida bolalikning ajoyib dunyosi o'quvchilar kiradigan ajoyib fan dunyosi bilan bog'liq bo'ladi. O'yinni dunyoning sakkizinchi mo'jizasi deb atash mumkin, chunki u juda katta ta'lim, va rivojlanish imkoniyatlariga ega. O'yin jarayonida bolalar atrofdagi narsalar va hodisalar to'g'risida turli xil bilimlarga ega bo'ladilar. O'yin bolalarning kuzatuvchanligini va narsalarning xususiyatlarini aniqlash, ularning muhim tomonlarini aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ma'lumki, didaktik o'yinlarning xususiyati ta'limga, o'qitish va o'qishga aloqador masalalarni dars jarayonida o'yin asosida, uning qoidalariga muvofiq olib borishdan iborat. Shuning uchun ham o'tmishdagi va hozirgi zamon psixolog, pedagog olimlari o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida didaktik o'yinlardan foydalanish masalasiga jiddiy e'tibor berganlar. O'quvchilarning o'yin faoliyatida didaktik o'yinlarning tutgan o'rniga psixologlar va pedagoglar tomonidan shu qadar yuqori baho berilishiga qaramay, bu o'yinlardan qanday foydalanish haqida umumiy to'xtamga kelingan emas. Pedagogik tadqiqotlarda didaktik o'yinlarga munosabatturlicha. Bunga o'yinlarning murakkabligi va ko'p qirrali ekanligi asosiy sababdir. Ayrim mualliflar didaktik o'yinlarni o'quvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyati sifatida baholaydilar, boshqalari metod, keyingilari esa ta'limning shakli, deb hisoblaydilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida «O'yin ko'ngil ochar, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot, Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma'lum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot», deb ta'riflagan⁹⁹. Ensiklopedik lug'atda «bolalar tarbiyasi, ta'limi hamda rivojlanishida ularni kelgusi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega», deb yozilgan¹⁰⁰.

Bular o'yin haqidagi umumiy ta'riflar bo'lib, didaktik o'yinlarning mohiyati haqida didaktik atamalar lug'atida quyidagicha ta'rif bergan. «Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turidir». Pedagogik atamalar lug'atida esa «didaktik o'yinlar-ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limiy o'yinlardir».¹⁰¹

⁹⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati T; Fan 1976. 632 b.

¹⁰⁰ Ensiklopedik lug'at T. 1990, 466 b.

¹⁰¹ Pedagogik atamalar lug'ati T; 2008 20 b.

O'yinlar orqali birinchidan, bilimlar o'zlashtiriladi, ikkinchidan, shaxslararo va guruh ichidagi nozik munosabatlar shakllanadi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali bolalar faoliyatining ikki asosiy turi: o'quv va o'yin faoliyati birlashtiriladi. Buning natijasida o'quvchilarga ta'lim berish ishlari osonlashib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'quv dasturi talablarini hisobga olish imkoniyatlari yaratiladi. "O'yin ko'p qirrali vosita, uning xususiyatlari haqida juda oz bilamiz. Lekin ishonch bilan aytish mumkinki, bu shaxsning har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi mustaqil faoliyat, jamoani uyushtiruvchi va birlashtiruvchi vosita, faoliyatning boshqa turlarini tashkil etish metodi, zavqlanish omili va fikr olishuv yo'lidir"¹⁰². Demak, o'yin ham faoliyat, ham vosita, ham metod, ham omil, ham yo'l sifatida namoyon bo'ladi. Maktablarda o'yinlardan to'g'ri foydalanilsa, ta'lim-tarbiya samaradorligi yuksaladi va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi.

- O'yin-mustaqil ta'lim sifatida o'quv predmetini, bo'limni, mavzuni, tushunchani o'zlashtirishni nazarda tutadi;

- Umumiy texnologiya elementlari sifatida qo'llaniladi;

- O'yin-dars yoki uning qismi sifatida tashkil etiladi;

- O'yin juda hissiyotga boy faoliyat bo'lib, shu sababli ham u bolalar va yoshlarning tarbiyaviy ishlarida jiddiylik talab etadi. Bolaning o'sishi va rivojlanishi bilan o'yinning mazmuni o'zgaradi, o'yin faoliyati dastlabki bosqichlarda oddiy bo'lsa, keyinchalik u bosqichma-bosqich boyib, takomillashib boradi.

Psixologlar o'yinga bola shaxsida yangi fazilat va sifatlar shakllantiruvchi, ularning umumiy o'sishiga yordam beruvchi faoliyat turi sifatida qaraydilar.

Masalan, L.S.Vigotskiy o'yin ordali bolalarning kelajak faoliyati uchun zarur buladigan axloqiy sifatlar tarbiyalanadi, deb hisoblaydi, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirishda o'yinlarning tutgan o'rnini shundaki, u aqliy qobiliyatlarni rivojlantiradi va ehtiyojlarni qondirishga yordam beradi¹⁰³.

O'yinli faoliyatning psixologik mexanizmi shaxsning o'zligini namoyish qilishi, hayotda o'z o'rnini belgilashi, o'zini-o'zi boshqara olishi va o'z imkoniyatiga tayanish kabi fundamental ehtiyojlarga asoslanishi xususida bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, D.N.Udnadze o'yinga o'zgacha ta'rif berib, shunday g'oyani ilgari surgan "o'yin bu shaxsga xos bo'lgan ta'sirli psixik xulq shaklidir" deb ta'riflaydi. Demak, maktab o'qituvchilari o'z faoliyatida o'yinlardan faol foydalanishlari zarur. O'yinlarsiz ijodiy faoliyat bo'lmaydi, yoki to'la ma'nodagi ta'lim amalga oshmaydi.

O'yinlar orqali birinchidan, bilimlar o'zlashtiriladi, ikkinchidan, shaxslararo va guruh ichidagi nozik munosabatlar shakllanadi. Didaktik o'yin nafaqat o'qitish shakli, balki vosita ham bo'lishi mumkin, chunki bu bilim olish va ko'nikmalarni shakllantirish manbai. Bu sizga o'quvchilarning bilimlarini uyg'otish va saqlash imkonini beradi, materialning ravshanligini diversifikatsiya qilish, uni yanada arzonroq qilish, shuningdek mustaqil ishlarni kuchaytirish imkonini beradi. Ya'ni xorijiy tillarni o'rgatishning eng samarali va oson usuli bu didaktik o'yinlardir. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Ilk maktab yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks

¹⁰² Газман О С Роль игры в формировании личности школьника М.1992. С 60.

¹⁰³ Выготский Л С 33

ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqishlari bevosita o'yinda ifodalanadi. Demak, boshlang'ich ta'lim chet tili darslarida turli didaktik o'yinlardan foydalanish ham ularning ijtimoiylashuviga, ham til ko'nikmalarini puxta egallashlarida eng yaxshi ta'lim vositasi vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xoriji tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117 son qarori.
2. 2021-yil 6-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektordagi nutqidan.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati T; Fan 1976. 632 b.
4. Ensiklopedik lug'at T. 1990. 466 b.
5. Pedagogik atamalar lug'ati T; 2008. 20 b.
6. Бэспалко В П Педагогика и прогрессивные технологии обучения М 1195 с 78.
7. Газман О С Роль игры в формировании личности школьника М 1992 С 60
8. Elkonin. "O'yin psixologiyasi" M; Akademiya nashriyoti. 2007.-89 b.